

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING NUTQIY SAVODXONLIGINI IJODIY TOPSHIRIQLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH

Orazbaeva Gozzal Usnaddin kızı
Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21912729>

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy savodxonligini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarning didaktik imkoniyatlari, ularning ta‘lim samaradorligiga ta‘siri hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda nutqiy savodxonlikning tarkibiy komponentlari aniqlanib, ularni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ijodiy topshiriqlar alohida ko‘rsatiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini boyitish, mustaqil fikrlash, muloqot madaniyati hamda kreativ kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: nutqiy savodxonlik, boshlang‘ich ta‘lim, ijodiy topshiriqlar, kommunikativ kompetensiya, kreativ fikrlash, og‘zaki nutq, yozma nutq, ta‘lim metodikasi.

Аннотация. В данной статье анализируются дидактические возможности творческих заданий в развитии речевой грамотности учащихся начальных классов, их влияние на эффективность обучения и интеграция с современными педагогическими технологиями. В исследовании определены структурные компоненты речевой грамотности и отдельно показаны творческие задания, служащие их развитию. Также освещаются методические подходы, направленные на обогащение устной и письменной речи учащихся, формирование самостоятельного мышления, культуры общения и креативных компетенций.

Ключевые слова: речевая грамотность, начальное образование, творческие задания, коммуникативная компетенция, креативное мышление, устная речь, письменная речь, методика обучения.

Abstract. This article analyzes the didactic possibilities of creative tasks in developing the speech literacy of primary school students, their impact on educational effectiveness, and their integration with modern pedagogical technologies. The study identifies the structural components of speech literacy and highlights creative tasks that serve their development. It also highlights methodological approaches aimed at enriching students' oral and written speech, independent thinking, communication culture, and the formation of creative competencies.

Keywords: speech literacy, primary education, creative tasks, communicative competence, creative thinking, oral speech, written speech, educational methodology.

Kirish. Ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki kundalik hayotda samarali muloqot qilish, fikrni ravon va mantiqiy ifodalash, axborotni tahlil qilish hamda mustaqil xulosa chiqarish kompetensiyalarini rivojlantirishni ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilamoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim bosqichida nutqiy savodxonlikni shakllantirish keyingi ta‘lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatning muhim omili hisoblanadi.

Nutqiy savodxonlik faqatgina grammatik qoidalarga rioya qilish emas, balki o‘quvchining tinglash, tushunish, gapirish, o‘qish va yozish faoliyatlarini yagona kommunikativ tizim sifatida egallashini anglatadi. Ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirishda ijodiy topshiriqlar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ular o‘quvchini tayyor bilimni takrorlash emas, balki yangi g‘oyalarni ilgari surish, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish va shaxsiy nuqtai nazarini asoslab berishga undaydi.

Bugungi kunda boshlang‘ich ta‘lim amaliyotida nutqni rivojlantirishga oid mashqlar mavjud bo‘lsa-da, ularning aksariyati reproduktiv xarakterga ega, yani tayyor bilimlarni eslab qolish va takrorlash mazmunida qolmoqda. Natijada o‘quvchilar grammatik topshiriqlarni bajarsalar-da, erkin fikr bildirish, matn yaratish va muloqot olib borishda qiyinchiliklarga duch kelishlari kuzatiladi. Shu bois nutqiy savodxonlikni rivojlantirishning kreativ metodlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida pedagogik kuzatish, ilmiy manbalarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish hamda pedagogik tajriba metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida qo‘llanilayotgan topshiriqlar mazmuni o‘rganilib, ularning nutqiy savodxonlikni rivojlantirish imkoniyatlari baholandi.

Nutqiy savodxonlik lug‘at boyligi, grammatik to‘g‘rilik, mantiqiy izchillik, fikrning aniqligi, ijodkorlik darajasi, kommunikativ faollik kabi mezonlar asosida tahlil qilindi. Mazkur mezonlar asosida ijodiy topshiriqlarning ta‘lim samaradorligiga ta‘siri ilmiy jihatdan asoslandi.

Natijalar va muhokama. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini faollashtirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. An‘anaviy mashqlar ko‘proq tayyor bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilsa, ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarni yangi mazmun yaratishga undaydi.

Rossiyalik pedagog S.A.Shapoval adabiy ta‘limdagi o‘quv topshiriqlarining filologik mohiyatiga e‘tibor qaratib: “O‘quvchi uchun haqiqiy o‘quv jarayoni tahlil natijasida tushunishga olib keladigan maxsus filologik topshiriqlar orqali ro‘y beradi”, - deydi. Bu fikr o‘quv topshiriqlarining faqat bilim berish emas, balki o‘quvchining fikrlash, tahlil qilish va o‘z fikrini asoslash qobiliyatini shakllantiruvchi vosita ekanligini ko‘rsatadi.[2]

L.S.Vygotskiyning ta‘kidlashicha, bolaning nutqi ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. U ishlab chiqqan “Yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchi kattalar yoki tengdoshlari yordamida mustaqil bajara olmaydigan vazifalarni bajarish orqali yuqori rivojlanish bosqichiga ko‘tariladi. Bunday vazifalar rasm asosida hikoya tuzish, matnni davom ettirish, dialog yaratish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, rolli o‘yinlar kabi ijodiy topshiriqlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu topshiriqlar o‘quvchilarning nutqiy savodxonligi, kreativ tafakkuri va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Demak, Vygotskiyning bunday ijtimoiy-konstruktivistik yondashuvi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning nutqiy savodxonligini rivojlantirishda hamkorlikdagi ijodiy faoliyatning muhimligini asoslaydi. [3]

Og‘zaki nutqni rivojlantirish o‘quvchilarning fikrini erkin ifodalash, suhbatdoshni tinglash, savollarga mazmunli javob berish va muloqot jarayonida adabiy til me‘yorlariga amal qilish kompetensiyalarini shakllantiradi. Rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar, savol-javoblar va ijodiy suhbatlar o‘quvchilarning faol ishtirokini ta‘minlab, kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Yozma nutqni rivojlantirish o‘quvchilarning fikrlarini mantiqiy ketma-ketlikda bayon etish, matnning mazmuniy yaxlitligini ta‘minlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Rasmlar asosida hikoya tuzish, matnni davom ettirish, yangi yakun yaratish, sarlavha tanlash hamda qisqa ijodiy matn yozish kabi topshiriqlar o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish bilan bir qatorda ularning tasavvuri va ijodiy fikrlashini ham faollashtiradi. Xalqaro tadqiqotlarda ham yozma ijodkorlik o‘quvchilarning samarali muloqot kompetensiyasini rivojlantiruvchi muhim omil sifatida baholanadi.

Mustaqil fikrlashni rivojlantirish o‘quvchining ma‘lumotni shunchaki eslab qolishi emas, balki uni tahlil qilishi, taqqoslashi, umumlashtirishi va yangi xulosalar chiqarishini nazarda tutadi. Shu bois ochiq javobli savollar, muammoli vaziyatlar va bir nechta yechimga ega bo‘lgan ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarning tahliliy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi. Bunday yondashuv o‘quvchining o‘z fikrini asoslay olish, dalillar keltirish va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantiradi.

Professor S.Matchonov o‘quv jarayonini o‘zlikni anglash konsepsiyasi bilan bog‘lab, ajdodlarimiz asrlar davomida intilib kelgan ma‘naviy barkamollikni o‘quv topshiriqlari orqali shakllantirish zarurligini ta‘kidlaydi. Unga ko‘ra, o‘quv topshiriqlari nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish vositasi, balki shaxsning ichki dunyosi, his-tuyg‘ulari va estetik dunyoqarashini tarbiyalovchi pedagogik mexanizm hisoblanadi. Bu esa o‘quvchilarning o‘z faoliyatida sog‘lom madaniyatli muloqot olib bora olishiga xizmat qiladi.[1]

Muloqot madaniyatini shakllantirish nutqiy savodxonlikning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u o‘quvchilarning suhbatdoshga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, tinglash madaniyatiga rioya qilishi, fikrini aniq va ravon ifodalashi hamda hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Guruhli va juftlikda bajariladigan ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarning o‘zaro muloqot qilish, fikr almashish va hamkorlikda muammolarni hal qilish kompetensiyalarini mustahkamlaydi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda ijodiy topshiriqlarning o‘ziga xos pedagogik afzalliklarini alohida sanab o‘tamiz. Birinchidan, ular o‘quvchilarning lug‘at boyligini tabiiy ravishda kengaytiradi. O‘quvchi hikoya, dialog yoki tavsif yaratish jarayonida yangi leksik birliklarni faol qo‘llaydi. Ikkinchidan, grammatik me‘yorlarni amaliy nutq jarayonida qo‘llash imkoniyati yuzaga keladi. Grammatik bilimlar sun‘iy mashqlar emas, balki real kommunikativ vaziyatlarda mustahkamlanadi. Uchinchidan, ijodiy topshiriqlar tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantiradi. O‘quvchi bir nechta yechimlarni izlaydi, ularni taqqoslaydi va eng maqbul variantni tanlaydi. To‘rtinchidan esa, muloqot madaniyati shakllanadi. Juftlik va guruh shaklidagi topshiriqlar tinglash, fikr almashish hamda bahs-munozara olib borish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tahlillar natijasida, nutqiy savodxonlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ijodiy topshiriqlarni o'quvchilarda qanday kompetensiyalarni rivojlantirishiga qarab bir nechta guruhlariga ajratib ko'rsatish mumkin. “Hikoya tuzish” – izchil nutqni, “rasm asosida matn yaratish” – tafakkur va tasviriy nutqni, “dialog qilish” – kommunikativ kompetensiyani, “ertakni yoki hikoyani davom ettirish” – kreativ fikrlashni, “muammoli vaziyatlar yechimi” – tanqidiy fikrlashni, “rolli o'yinlar” - og'zaki nutqni, “sarlavha yaratish yoki matnni yakunlash” – umumlashtirish, xulosa qilish kabi mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, ijodiy topshiriqlar muntazam qo'llanilganda o'quvchilarning darsdagi faolligi ortadi, nutqning grammatik to'g'riligi yaxshilanadi hamda mustaqil matn yaratish, erkin mulohaza ko'nikmalari rivojlanadi.

Shuningdek, ijodiy topshiriqlarni raqamli ta'lim vositalari bilan integratsiyalash samaradorlikni yanada oshiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun raqamli ta'lim vositalari asosida rasmlar ketma-ketligidan hikoya tuzish, gaplarni to'ldirish, ertak yoki hikoyaning davomini yaratish, so'zlardan gap va matn tuzish, dialogni yakunlash, rasmga mos sarlavha topish, tinglangan matn asosida ijodiy javob yozish hamda berilgan vaziyat yuzasidan qisqa og'zaki yoki yozma fikr bildirish kabi ijodiy topshiriqlar samarali hisoblanadi.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy savodxonligini rivojlantirish uzluksiz ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Tadqiqot natijalari ijodiy topshiriqlardan tizimli va maqsadli foydalanish o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutqini rivojlantirish, lug'at boyligini kengaytirish, mantiqiy fikrlash va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi.

Shuningdek, ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi motivatsiyasini oshirib, ularni bilimning faol subyektiga aylantiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalar bilan uyg'unlashtirilgan ijodiy topshiriqlar boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Kelgusida nutqiy savodxonlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt, adaptiv ta'lim va raqamli pedagogika imkoniyatlari bilan integratsiyalashgan metodik modelini ishlab chiqish hamda ta'lim amaliyotida barcha pedagoglar tomonidan samarali qo'llanilishi mumkin bo'lgan, ilmiy asoslangan ijodiy topshiriqlar tizimini yaratish ushbu yo'nalishdagi istiqbolli ilmiy tadqiqot vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matchonov S. va boshq. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. – 605-b.
2. Shapoval S.A. *Ponimaniye tekstov kak rezul'tat resheniya uchebnykh filologicheskikh zadach*. Avtoreferat dissertatsii kandidata psixologicheskikh nauk). Moskva. 2006. https://nauka-pedagogika.com/psihologiya-19-00-07/dissertatsiya-ponimanie-tekstov-kak-rezultat-resheniya-uchebnyh-filologicheskikh-zadach?utm_source
3. Vygotsky L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press. 1978. 86-87-b. <https://www.hup.harvard.edu/books/9780674576292>